



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITVYI V AGRAPHOМ SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQRISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQRISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
Toxirov Javlon Raximovich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
Arslonov U. U.	
RESURSLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'Y INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
Komiljon Karimov	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
Karimova Xurshida Raximovna	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
Ли Марина Рудольфовна	
O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
Xoshimova Sevara Baxromovna	
FARMATSEVIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
Turayev Baxtiyor Ergashevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI	427
Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI	432
Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi	
INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	437
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA BOZOR MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	444
Khakimov Bekzod Ilhomjonovich	
O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI MUASSASALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	453
Atabayeva Yulduz Baxtiyar qizi	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ	457
Ким Елена Радионовна	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI BOSHQARUV SAMARADORLIGI: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	464
Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi	
STRATEGIC MARKETING CAPABILITIES AND ENTERPRISE COMPETITIVENESS IN DIGITAL PLATFORM ECOSYSTEMS: A CONCEPTUAL SMPC MODEL FOR EMERGING MARKETS	471
Bakhtiyor Ruziev Eshmuminovich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	477
Усманова Зумрад Исламовна	
UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAÝTIRISHDA YASHIL INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	480
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li, Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich, Majidov Jamoladdin Komoliddinovich	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBEKTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	485
Gulomqodirova Ma'muraxon Saydumarxon qizi	
QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI	492
Xusanova Sevara Shavkat qizi	



QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI

Xusanova Sevara Shavkat qizi

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Email: sevaraxusanova64@gmail.com

ORCID: 0009-0003-9999-8412

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari o'rganiladi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanish tarixi, qishloq hududlarini rivojlantirishga oid xorijiy va mahalliy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. SWOT-tahlil, klaster tahlili va korrelyatsion usullar yordamida O'zbekiston qishloq manzilgohlarining hozirgi holati baholanadi. Tadqiqot natijasida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishning konseptual doirasi ishlab chiqilgan hamda amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq manzilgohlari, barqaror rivojlanish, nazariy asos, metodologiya, SWOT-tahlil, O'zbekiston.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of the sustainable development of rural settlements. The study analyzes the history of the formation of the sustainable development concept, along with foreign and local theoretical approaches to rural area development. The current state of rural settlements in Uzbekistan is assessed using SWOT analysis, cluster analysis, and correlation methods. As a result of the research, a conceptual framework for the sustainable development of rural areas has been developed, and practical recommendations are provided.

Key words: rural settlements, sustainable development, theoretical basis, methodology, SWOT analysis, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы устойчивого развития сельских поселений. В исследовании анализируется история формирования концепции устойчивого развития, а также зарубежные и отечественные теоретические подходы к развитию сельских территорий. С помощью SWOT-анализа, кластерного анализа и корреляционных методов оценивается современное состояние сельских поселений Узбекистана. В результате исследования разработана концептуальная основа устойчивого развития сельских территорий и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: сельские поселения, устойчивое развитие, теоретическая основа, методология, SWOT-анализ, Узбекистан.

KIRISH

Insoniyat tarixida qishloq manzilgohlari eng qadimiy aholi yashash joylari sifatida paydo bo'lgan va bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Dunyo aholisining taxminan 44 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi, qishloq xo'jaligi esa ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi.¹ Ayni vaqtda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi global muammolar qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasini keskin dolzarb qilib qo'ygan.

O'zbekiston sharoitida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Respublika aholisining 49 foizga yaqini qishloq joylarida hayot kechiradi, mamlakatning yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi 25 foizga yaqin. Shu bilan birga, qishloq hududlarida infratuzilmani yanada rivojlantirish, aholi bandligini kengaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda yer unumdorligini oshirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Bu holat qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.²

1 FAO. The State of Food and Agriculture 2023. – Rome: FAO, 2023. – P. 12.

2 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda 2023. – Toshkent, 2024. – B. 45.



Barqaror rivojlantirish konsepsiyasi 1987-yilda Brundtland komissiyasining «Bizning umumiy kelajagimiz» nomli dokladida rasmiy sifatda shakllantirilgan bo'lib, u «bugungi avlodning ehtiyojlarini kelajak avlodlarning imkoniyatlariga putur yetkazmasdan qondirish» ma'nosini anglatadi.³ Biroq bu umumiy ta'rif qishloq manzilgohlari uchun maxsus tafsir va moslashtirishni talab qiladi, chunki qishloq joylardagi barqarorlikning o'ziga xos xususiyatlari, muammolari va imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqotning maqsadi – qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tizimli o'rganish, xorijiy va mahalliy tajribani umumlashtirish hamda O'zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Ishda deduktiv va induktiv yondashuvlar, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, klaster tahlili, korrelyatsion tahlil kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Axborot bazasi sifatida O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar (FAO, UNDP, Jahon banki) hisobotlari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirish masalasi bir nechta fan tarmoqlarining tutash nuqtasida shakllanib, o'ziga xos nazariy bazaga ega. Ushbu bo'limda mavjud ilmiy adabiyotlarning tanqidiy sharhi keltiriladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi. Barqaror rivojlanish g'oyalarining ildizlari 1960–1970-yillarga borib taqaladi. D. Medouz va hammualliflarning «O'sishning chegaralari» (1972) dokladi tabiiy resurslarning cheklanganligi haqidagi munozaralarni boshladi. 1987-yilda Brundtland komissiyasining dokladi barqaror rivojlanishning eng keng tarqalgan ta'rifini shakllantirdi. Keyinchalik 1992-yildagi Rio konferensiyasi, 2000-yildagi Ming yillik rivojlanish maqsadlari va 2015-yildagi BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (17 maqsad, 169 vazifa) bu konsepsiyani global darajada rasmiylashtirdi.⁴

V. Kristaller (1933) «Markaziy joylar» nazariyasida manzilgohlarning ierarxik joylashuvini o'rganib, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish tizimining qonuniyatlarini aniqlagan⁵. F. Perru (1955) «O'sish qutblari» nazariyasi hududiy rivojlanishning notekis xususiyatini tushuntirib, maqsadli investitsiyalar orqali periferiya hududlarining rivojlanishini rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatib bergan⁶. G. Myrdal (1957) kumulyativ sababiyat nazariyasida rivojlanishdagi tengsizlikning to'planib borish xususiyatini tadqiq qilib, qishloq-shahar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutning chuqurlashish mexanizmlarini aniqlagan⁷.

I. Skunsning (1998) «barqaror yashash vositalari» yondashuvi qishloq aholisining yashash sharoitlarini besh turdagi kapital – inson, tabiiy, moliyaviy, ijtimoiy va fizik kapital – orqali o'rganishni taklif qilgan. Bu doira qishloq manzilgohlarini ko'p o'lchovli tizim sifatida baholashga imkon beradi⁸. Van der Plug va boshqalarning (2000) endogen rivojlanish nazariyasi qishloq joylarining ichki resurslari – mahalliy bilim, an'analar, tabiiy boyliklar – asosida rivojlanishi mumkinligini ko'rsatib bergan⁹.

M. Mozli (2003) qishloq rivojlantirishni «muayyan hududdagi aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot sifatini barqaror ravishda yaxshilashga qaratilgan maqsadli harakatlar majmui» deb ta'riflagan. Bu ta'rif qishloq rivojlanishining ko'p qirrali tabiatini aks ettiradi¹⁰. A. Sen (1999) esa rivojlanishni inson erkinliklarini kengaytirish jarayoni sifatida tushuntirib, iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqari ijtimoiy imkoniyatlar va siyosiy erkinliklar ham rivojlanishning asosiy mezonlari ekanligini ta'kidlagan¹¹.

D. Nort (1990) iqtisodiy rivojlanishda institutlar – rasmiy qoidalar va norasmiy cheklashlar – hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan. Qishloq joylarini barqaror rivojlantirishda institutsional muhitning sifati – mulk huquqining himoya qilinishi, qonunlarning amalda bajarilishi, korrupsiyaning kamaytirilishi – muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida mahalla instituti qishloq joylarida o'ziga xos institutsional rolni bajaradi¹².

A.V. Vahobov va Q.Q. Rozuqulov (2020) qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini kompleks o'rganganlar¹³. A.M. Mutalov (2018) O'zbekistonda qishloq joylarini rivojlantirishning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarini tizimli tahlil qilgan¹⁴. X.M. Mamatqulov (2022) hududlarni

3 Brundtland G.H. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – P. 43.

4 Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015. – P. 3-5.

5 Christaller W. Central Places in Southern Germany. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966. – P. 14.

6 Perroux F. A Note on the Notion of Growth Pole // Applied Economy. – 1955. – Vol. 1-2. – P. 307-320.

7 Myrdal G. Economic Theory and Under-Developed Regions. – London: Duckworth, 1957. – P. 23.

8 Scoones I. Sustainable Rural Livelihoods: A Framework for Analysis // IDS Working Paper. – 1998. – No. 72. – P. 5.

9 Van der Ploeg J.D. et al. Rural Development: From Practices and Policies towards Theory // Sociologia Ruralis. – 2000. – Vol. 40(4). – P. 391-408.

10 Moseley M.J. Rural Development: Principles and Practice. – London: SAGE, 2003. – P. 7.

11 Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – P. 36.

12 North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: CUP, 1990. – P. 3.

13 Vahobov A.V., Rozuqulov Q.Q. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligi. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 56.

14 Mutalov A.M. O'zbekistonda qishloq joylarni rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 34.


barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqqan¹⁵. K.A. Sharipov (2020) qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot olib borgan¹⁶.

Suarez-Roa va boshqalar (2023) tizimli adabiyot sharhini o'tkazib, qishloq hududlarida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlarini aniqlashtirib berganlar¹⁷. Biroq mavjud adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qishloq manzilgohlarining o'ziga xos xususiyatlarini – arid iqlim sharoiti, mahalla tizimining roli, yerlarning sho'rlanishi, suv tanqisligi – inobatga olgan holda barqaror rivojlantirish konsepsiyasini maxsus moslashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalarini uchta asosiy yo'nalishda taqdim etish maqsadga muvofiq: birinchidan, qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning konseptual doirasini shakllantirish; ikkinchidan, O'zbekiston qishloq manzilgohlarining hozirgi holatini SWOT-tahlil orqali baholash; uchinchidan, rivojlantirish yo'nalishlarini asoslash.

Tadqiqot davomida qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning konseptual doirasi ishlab chiqildi. Ushbu doira uchta asosiy o'lcham – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik – ning o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi zaruratiga asoslanadi. Brundtland komissiyasining umumiy ta'rifidan farqli o'laroq, qishloq manzilgohlari uchun bu o'lchamlar maxsus mazmun kasb etadi: iqtisodiy o'lcham qishloq xo'jaligining samaradorligi, kichik biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash masalalarini o'z ichiga oladi; ijtimoiy o'lcham ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va ijtimoiy tenglikni qamrab oladi; ekologik o'lcham esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biodiversitetni saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashishni nazarda tutadi (1-rasm).



1-rasm. Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning konseptual doirasi¹⁸

Konseptual doiraning muhim jihati shundaki, har uchala o'lcham alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ishlaydi. Masalan, iqtisodiy o'sish ekologik barqarorlikka putur yetkazmasligi kerak; ijtimoiy rivojlanish iqtisodiy imkoniyatlarsiz amalga oshmaydi; ekologik muhit buzilsa, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish ham tavakkalga tushadi. Shu nuqtai nazardan, Skunsning beshta kapital doirasi va Senning erkinlik yondashuvi bir-birini to'ldiruvchi nazariy asos vazifasini bajaradi.

15 Mamatqulov X.M. Hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyalari. – Toshkent: Moliya, 2022. – B. 156.

16 Sharipov K.A. Qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish. – Toshkent: Moliya, 2020. – B. 134.


17 Suarez-Roa C. et al. Sustainable Development in Rural Territories: A Review // Heliyon. – 2023. – Vol. 9(7). – e17555.

18 Muallif ishlanmasi



Tadqiqotda to'rt bosqichli metodologiya qo'llanildi: birinchi bosqichda mavjud ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi; ikkinchi bosqichda O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, FAO, UNDP va Jahon banki hisobotlari asosida ma'lumotlar bazasi shakllantrildi; uchinchi bosqichda SWOT-tahlil, klaster tahlili va qiyosiy tahlil usullari yordamida ma'lumotlar qayta ishlandi; to'rtinchi bosqichda esa natijalar umumlashtirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi (2-rasm).

2-rasm. Tadqiqot metodologiyasi sxemasi



2-rasm. Tadqiqot metodologiyasi sxemasi¹⁹

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 12 mingdan ortiq qishloq mavjud bo'lib, ular mamlakatning turli tabiiy-geografik zonalarida joylashgan. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, respublika aholisining 49,4 foizi qishloq joylarida yashaydi, qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 25,1 foizini yaratadi, 6,5 milliondan ortiq kishi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadi. Biroq hududiy differentsiatsiya juda kuchli: Farg'ona vodiysida aholi zichligi bir kvadrat kilometrga 500 kishidan ortiq bo'lsa, Qoraqalpog'iston va Navoiy viloyatlarida bu ko'rsatkich 12 kishidan kam.

Tadqiqot davomida qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning SWOT-tahlili o'tkazildi. Tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarga kelishga asos berdi (3-rasm):

3-rasm. Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning SWOT-tahlili



Manba: Muallif ishlanmasi

3-rasm. Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning SWOT-tahlili²⁰

19 Muallif ishlanmasi

20 Muallif ishlanmasi



Kuchli tomonlar: O'zbekistonning qishloq hududlari bir qator salmoqli afzalliklarga ega. Avvalambor, boy tabiiy resurslar salohiyati – unumdor yerlar, mineral boyliklar, quyosh energiyasi potentsiali mavjud. An'anaviy dehqonchilik tajribasi asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Mahalla tizimining kuchli ijtimoiy kapital sifatidagi roli – mahalla qishloq hayotini tartibga solish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish, nizolarni hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Yosh aholi ulushining yuqoriligi esa mehnat resurslari jihatidan salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Zaif tomonlar: Boshqa tomondan, ayrim rivojlantirishni talab qiluvchi jihatlar ham mavjud. Infratuzilmani yanada takomillashtirish – yo'llar, elektr ta'minoti va suv tizimlarini modernizatsiya qilish kundalik hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlarning shaharlarga ko'chib ketishi natijasida qishloq joylarida malakali kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, qishloq hududlariga investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalar qamrovini oshirish mavjud imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

Imkoniyatlar: Davlat dasturlarining – «Obod qishloq», 2020–2030-yillar strategiyasi – amalga oshirilishi qishloq joylariga salmoqli resurslar yo'naltirilishini ta'minlaydi. Raqamlashtirish imkoniyatlari masofaviy ta'lim, telemeditsina, elektron tijorat platformalari orqali xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashi mumkin. Agro va ekoturizmni rivojlantirish qishloq hududlarining yangi daromad manbalarini yaratadi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi – xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarning oqib kelishi mumkin.

Tahdidlar: Iqlim o'zgarishi oqibatlarini – qurg'oqchilik, harorat ko'tarilishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi – qishloq xo'jaligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilmoqda. Urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari qishloq joylardan aholi oqimini kuchaytirmoqda. Suv resurslarining kamayishi – Orol dengizi muammosi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining qisqarishi. Global iqtisodiy beqarorlik mamlakatning tashqi iqtisodiy muhitiga ta'sir ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval. Barqaror rivojlanish indikatorlarining qishloq manzilgohlarga tatbiqi²¹

O'lcham	Indikator	O'zbekiston holati	Maqsadli ko'rsatkich
Iqtisodiy	Jon boshiga YaIM	Past (shahardan 2-3 marta kam)	Farqni 1,5 martagacha kamaytirish
Iqtisodiy	Bandlik darajasi	Mavsumiy, norasmiy	Barqaror bandlik oshirish
Ijtimoiy	Ta'lim qamrovi	Maktabgacha 30-40%	70% ga yetkazish
Ijtimoiy	Sog'liqni saqlash	Kasalxonagacha 20-50 km	10 km ichida
Ekologik	Suv ta'minoti	60-70% qamrov	95% ga yetkazish
Ekologik	Yer degradatsiyasi	30% yer sho'rlangan	Sho'rlanishni kamaytirish

1-jadvalda ko'rsatilganidek, qishloq manzilgohlarida barqaror rivojlanishning barcha uch o'lchamida – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik – jiddiy kamchiliklar mavjud. Jon boshiga tushadigan YaIM shaharlarga nisbatan 2–3 marta past, bandlik mavsumiy va norasmiy xarakterga ega, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari qamrovi yetarli emas, suv ta'minoti va yer holati muammolari jiddiy tus olgan. Bu ko'rsatkichlar qishloq hududlariga nisbatan maqsadli va differensial siyosat olib borilishi zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.²²

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi nazariy-amaliy bog'liqliklar aniqlandi. Birinchidan, Perruning «o'sish qutblari» nazariyasi O'zbekistonda «bir mahalla – bitta mahsulot» dasturi bilan chambarchas bog'liq – har bir qishloqning o'ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuvini rivojlantirish orqali o'sish nuqtalarini yaratish mumkin. Ikkinchidan, Skunsning besh kapital doirasi qishloq hududlarini ko'p o'lchovli baholash uchun amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, Nortning institutsional nazariyasi mahalla tizimining qishloq boshqaruvidagi rolini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'ladi. To'rtinchidan, Van der Plugning endogen rivojlanish yondashuvi qishloq joylarning ichki salohiyatidan samarali foydalanish strategiyasini asoslaydi.

Myrdal nazariyasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qishloq hududlariga maqsadli davlat qo'llab-quvvatlashi amalga oshirilmasa, ularning qo'loqligi tobora chuqurlashishi muqarrar. Jahon banki (2007) ham bu holatni tasdiqlab, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga investitsiyalarning oshirilishi iqtisodiy o'sish va kambag'allikni kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligini ko'rsatgan. Ayni vaqtda F. Ellis va S. Biggs (2001) qishloq rivojlanishi paradigmasining modernizatsiyadan ishtirokchilik va barqaror rivojlanish paradigmasiga o'tish tendensiyasini ta'kidlab, qishloq aholisining rivojlanish jarayonlariga bevosita ishtirokining muhimligini ko'rsatganlar.²³

21 Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

22 World Bank. World Development Report 2008: Agriculture for Development. – Washington, 2007. – P. 26.

23 Ellis F., Biggs S. Evolving Themes in Rural Development // Development Policy Review. – 2001. – Vol. 19(4). – P. 437-448.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirish ko'p o'lchovli va ko'p tarmoqli jarayon bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlarning muvozanatli rivojlanishini talab qiladi. Brundtland (1987) ta'rifidan farqli o'laroq, qishloq manzilgohlari uchun barqarorlik maxsus mazmun kasb etadi va mahalliy sharoitga moslashtirilishi zarur.

2. Klassik nazariyalar – Kristaller, Perru, Myrdal, Schultz nazariyalari – qishloq rivojlanishini tushunishda poydevor vazifasini bajaradi, zamonaviy yondashuvlar esa – Skunsning barqaror yashash, Van der Plugning endogen rivojlanish, Nortning institutsionalizmi, Senning erkinlik nazariyasi – ularni to'ldiradi va boyitadi.

3. O'zbekiston qishloq manzilgohlari boy tabiiy resurslar salohiyati, an'anaviy dehqonchilik tajribasi va kuchli mahalla tizimiga ega bo'lish bilan birga, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, kadrlar yetishmasligi, investitsiyalar kamligi va ekologik muammolar bilan duch kelmoqda.

4. SWOT-tahlil natijalari ko'rsatadiki, qishloq hududlarining imkoniyatlari – davlat dasturlari, raqamlashtirish, turizm, xalqaro hamkorlik – mavjud muammolarni hal qilish uchun yetarli salohiyatga ega, biroq buning uchun maqsadli va differensial siyosat zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchi taklif: «Joyga asoslangan» differensial rivojlantirish siyosatini joriy etish. Barcaning yondashuvi asosida har bir hududning o'ziga xos muammo va imkoniyatlaridan kelib chiqib, maqsadli dasturlar ishlab chiqish lozim. Vodiy hududlari uchun bir strategiya, cho'l va tog' hududlari uchun boshqa strategiya zarur.

Ikkinchi taklif: Qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani jadal rivojlantirish. Masofaviy ta'lim, telemeditsina, elektron tijorat platformalari orqali qishloq aholisiga zamonaviy xizmatlarni yetkazish imkoniyatini yaratish. Bu yondashuv xorijiy tajribada – Finlyandiya, Janubiy Koreya, Estoniya – samarali natijalar bergan.

Uchinchi taklif: «Bir mahalla – bitta mahsulot» dasturini kengaytirish va chuqurlashtirish. Har bir qishloqning o'ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuvini rivojlantirish – agro va ekoturizm, hunarmandchilik, organik dehqonchilik, qayta ishlash sanoati – orqali mahalliy daromad manbalarini diversifikatsiya qilish.

To'rtinchi taklif: Qishloq manzilgohlarini barqaror rivojlantirishning indikatorlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan kompleks monitoring tizimini yaratish. Bu tizim rivojlanish dasturlarining samaradorligini baholash va o'z vaqtida tuzatish kiritish imkonini beradi.

Beshinchi taklif: Mahalla institutining qishloq rivojlantirishdagi rolini kuchaytirish. Mahallaga qishloq xo'jaligini boshqarish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish borasida kengaytirilgan vakolatlar berish va uning salohiyatini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashley C., Maxwell S. Rethinking Rural Development // *Development Policy Review*. – 2001. – Vol. 19(4). – P. 395-425.
2. Barca F. An Agenda for a Reformed Cohesion Policy: A Place-Based Approach. – Brussels: European Commission, 2009. – 244 p.
3. Brundtland G.H. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p.
4. Carson D.B., Carson D.A., Porter R. et al. Cities, hinterlands and disconnected urban-rural development // *Journal of Rural Studies*. – 2022. – Vol. 93. – P. 61-70.
5. Chambers R. Rural Development: Putting the Last First. – London: Longman, 1983. – 246 p.
6. Christaller W. Central Places in Southern Germany. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966. – 230 p.
7. Ellis F., Biggs S. Evolving Themes in Rural Development 1950s-2000s // *Development Policy Review*. – 2001. – Vol. 19(4). – P. 437-448.
8. FAO. The State of Food and Agriculture 2023. – Rome: FAO, 2023. – 168 p.
9. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // *American Economic Review*. – 1955. – Vol. 45(1). – P. 1-28.
10. Le Tourneau F.-M. Sparsely populated regions as a specific geographical environment // *Journal of Rural Studies*. – 2020. – Vol. 75. – P. 70-79.
11. Moseley M.J. Rural Development: Principles and Practice. – London: SAGE Publications, 2003. – 227 p.
12. Myrdal G. Economic Theory and Under-Developed Regions. – London: Duckworth, 1957. – 168 p.
13. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: CUP, 1990. – 152 p.
14. Perroux F. A Note on the Notion of Growth Pole // *Applied Economy*. – 1955. – Vol. 1-2. – P. 307-320.
15. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015. – 543 p.
16. Schultz T.W. Transforming Traditional Agriculture. – New Haven: Yale University Press, 1964. – 212 p.
17. Scoones I. Sustainable Rural Livelihoods: A Framework for Analysis // *IDS Working Paper*. – 1998. – No. 72. – P. 1-22.
18. Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 366 p.
19. Suarez-Roa C. et al. Sustainable Development in Rural Territories: A Review of the State of the Art // *Heliyon*. – 2023. – Vol. 9(7). – e17555.
20. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. 12th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 860 p.



21. UNDP. Human Development Report 2023-2024. – New York: UNDP, 2024. – 280 p.
22. Van der Ploeg J.D. et al. Rural Development: From Practices and Policies towards Theory // Sociologia Ruralis. – 2000. – Vol. 40(4). – P. 391-408.
23. World Bank. World Development Report 2008: Agriculture for Development. – Washington, 2007. – 365 p.
24. Vahobov A.V., Rozuqulov Q.Q. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligi. – Toshkent: Sharq, 2020. – 248 b.
25. Hamroyev H.R. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirish. – Toshkent: TDIU, 2020. – 198 b.
26. Ismoilov A.I. O'zbekiston agrar sektori: muammo va yechimlar. – Toshkent: TDAU, 2021. – 198 b.
27. Mamatqulov X.M. Hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyalari. – Toshkent: Moliya, 2022. – 320 b.
28. Mutalov A.M. O'zbekistonda qishloq joylarni rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2018. – 196 b.
29. Sharipov K.A. Qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish. – Toshkent: Moliya, 2020. – 276 b.
30. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda 2023. – Toshkent, 2024.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4567334>
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
